



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING TAFAKKURINI O‘STIRISH JARAYONIGA PEDAGOGIK YONDASHUV

Qurbonova Baxtixon Qo‘chqarbayevna – dotsent, FarDU
G‘aniyeva Ranoxon Safarali qizi – talaba, FarDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurini o‘stirish jarayonida pedagogik nuqtayi nazardan amalga oshiriladigan ishlar va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkur shakllantirish yo‘llari va ularni rivojlantirish hamda bu yoshdagi bolalarni erkin fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng zamonaviy shaxs sifatida tarbiyalash haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim, tafakkur, pedagogik mahorat, o‘qituvchi, o‘quvchi, innovatsiya, kreativlik, ta‘lim – tarbiya.

Kirish: Mamalakatimizda amalga oshirilgan islohotlarning negizida ayniqsa ta‘lim-tarbiya borasida amalga oshirilayotgan ishlarda barkamol insonni tarbiyalash, uni zamon talablariga munosib javob bera oladigan shaxs sifatida voyaga yetkazish va yosh-avlod ongida sog‘lom tafakkurni tarkib toptirish, irodasi kuchli mustaqil fikr yurita oladigan shaxs qilib kamol toptirishni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Yangi O‘zbekistonning “Taraqqiyot strategiyasi”da jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.¹ Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatini o‘stirish uzluksiz ta‘lim tizimi jarayonini ta‘minlash va bu jarayonga pedagog kadrlarning alohida zamon talablari asosida yondoshishlariga zamin yaratish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalar intellektual rivojlanish darajasi bilan alohida ajralib turadi. Aynan boshlang‘ich ta‘lim davrida barcha aqliy va ruhiy jarayonlarni rivojlantirish hamda bolalarning boshlang‘ich sinfda o‘qish va o‘rganish jarayonida yuz berayotgan o‘zgarishlarini kuzatish yuzaga keladi, chunki aynan boshlang‘ich ta‘lim davrida eng muhim o‘zgarishlar: aqliy va jismoniy faoliyatning ortishi, turli xil manbalar asosida nutqining o‘sib borishi, oilada va ijtimoiy kundalik hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lib borishi kelajak haqida rejalar tuzishi va boshqa bir qator ijobiy va salbiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bunday o‘zgarishlarni vaqtida ko‘ra bilish va unga pedagogik nuqtayi nazardan mukammal yondoshish o‘qituvchidan yuksak mahorat va pedagogik bilim talab etadi. O‘qituvchi yondoshgan usullar orqali o‘quvchilarda tafakkurning rivojlanishi ham nazariy ham amaliy jihatdan olib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni 2022-yil 28-yanvar



borilayotgan boshqa barcha yo‘nalishlar faoliyatini aniqlaydigan va kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining shaxsini rivojlantirishda va tafakkurini boyitishda muhim vazifaga aylanadi.

Kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog‘lomligida, uning bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini ko‘rish mumkin. Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog‘liqliklaridan xabardor bo‘lishga intiladi. Masalan, u o‘zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho‘kish, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bolsa, u shunchalik ko‘p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo‘ladi²

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkurni shakllantirish jarayoniga o‘qituvchining pedagogik yondashuvi, uning dars jarayonida va darsdan tashqari olib boriladigan ma‘naviy-ma‘rifiy hamda o‘quv –tarbiyaviy ishlarda bolalarni bilim, ko‘nikma va malaka tizimini rivojlantirishni ta‘limning noan‘anaviy metodlari bilan o‘rgatishni anglatadi. Bugungi kunda mamlakatimiz xalqaro maydonda yuksak marralarni zabt etish maqsadida qadam tashlar ekan, bunga erishish va o‘z-o‘zini mustaqil rivojlantira oladigan tafakkuri keng hamda mukammal fikrlashni biladigan yoshlarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish ta‘lim tizimi hodimlari va pedagog kadrlarning jon tomiriga aylanmog‘i lozim.

O‘qituvchi avvalo tafakkurni o‘stirishda uning bir nechta xususiyatga egaligi va bolalarning sezish va idrok etishlaridan ajralib turishini e‘tiborga olishi kerak. Chunki har qanday voqelik ham tafakkur bo‘lavermaydi. O‘qituvchi dars jarayonida biror voqea-hodisani qismlarga bo‘lib yoki mavzulashtirilgan holda tushuntirishi mumkin. Bunda ketma-ket so‘z yuritilayotgan mavzularni bir nom ostida ham tushuntirish mumkin. Masalan: ona tili darslarida “Fe‘l” so‘z turkumini o‘rgatishda fe‘lning qanday ma‘no anglatishi, fe‘llarning qanday vazifa bajarishi uning muhimlik darajasi, fe‘llarning yasalishi va boshqalar haqida so‘z yuritiladi. Yuqoridagilarning barchasi bir nom bir mavzu ostida fe‘lni anglatishi ma‘lum. Shu nuqtayi nazardan tafakkurning bu xil xususiyati voqelikni umumlashgan holda aks ettirish hisoblanadi. Bolalar voqeliklarni umumlashgan holda aks ettira olishlari uchun esa o‘qituvchi har bir jarayonga voqelik tarkibidagi har bir qismga noana‘anaviy va kreativ tarzda yondashmog‘i va bolalarda tafakkurning bunday ko‘rinishini tarkib toptirishga erishmog‘i lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalarda rivojlantiriladigan tafakkurning yana bir xususiyati bu bog‘lanishlarni bevosita aks ettirishdir. Bu xil tafakkur xususiyatini o‘stirish orqali atrof-muhitda, oilada, maktabda, jamoat joylarida umuman jamiyatda turli voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni tushuntirish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Ya‘ni hech bir jarayon bir-biridan alohida va o‘zgacha yuz bermaydi. Insonning har bir xatti-

² Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya”, “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent -2018



harakari bir-biriga bog‘lanib bir-birini taqozo etib keladi. O‘qituvchi bunday bog‘lanishlarni ham nazariy ham amaliy tarzda o‘quv-metodik adabiyotlar, ko‘rgazmalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, muammoli topshiriqlar va namunali shaxslar orqali tushuntirishi va o‘quvchi tafakkuridagi bog‘lanishlarni shakllantirishga erishmog‘i lozim. O‘qituvchi bolalar tafakkurini o‘stirishda eng muhim vosita bu nutq ekanligini anglatishi kerak. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkurining keyingi xususiyati so‘z va nutq orqali narsa va voqea-hodisalar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari muloqot qilayotganda mustaqil fikrlash haqida xabardor bo‘lishadi. Yosh nuqtayi nazaridan muammolarni hal qilish yo‘llari muhokama qilinadi, shu sababli o‘qituvchilar uzluksiz tarzda o‘quvchilarning o‘z fikrini to‘g‘riligini ongli ravishda tafakkur qilib aytishini talab qiladi. O‘quvchilarning o‘z vazifalarini mustaqil hal qilishlarini talab qiladi. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘z harakatlarini rejalashtirish qobiliyatini o‘qish jarayonida faol ravishda shakllantiriladi. Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinfda ta‘lim olayotgan bolalar muntazam ravishda uzluksiz mulohaza yuritishi kerak bo‘lgan tizimga aylanadi va turli xil qarorlarni xulosa qilishga harakat qiladi. Shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish pedagog kadrlar oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ularning tafakkurini shakllantirishda o‘qituvchilardan yuksak kasbiy mahorat, ilg‘or pedagogik tajriba, yuqori malaka hamda chuqur bilimlar egasi bo‘lish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. “O‘zbekiston”. Toshkent-2022
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-80-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar
3. P.I.Ivanova, M.E.Zufarova. “Umumiy psixologiya”. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2008